



Badiiy asarda qahramon ruhiyati va ramziylik: “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani tahlili

Xakimova Aziza Ikromjon qizi

Аннотация

Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani tahlil qilinib, unda qahramon ruhiyati, ijtimoiy adolatsizlik va begonalashuv masalalari yoritiladi. Asarda portret, peyzaj va ramziy tasvirlar orqali inson ichki kechinmalari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida roman insonning o‘z “men”ini izlash jarayoni va jamiyatdagi ma’nisizlikni aks ettiruvchi asar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar:

Nazar Eshonqul, roman, qahramon ruhiyati, ijtimoiy adolatsizlik, begonalashuv, ramziy obraz, inson “meni”, badiiy tasvir, falsafiy talqin.

Аннотация. В статье анализируется роман Назара Эшонкула «Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви», в котором раскрываются вопросы психологии героя, социальной несправедливости и отчуждения. Особое внимание уделено художественным средствам – портрету, пейзажу и символической, через которые передаются внутренние переживания персонажа. В результате роман рассматривается как произведение, отражающее поиск человеком своего «я» и бессмысленность общественного бытия.

Ключевые слова. Назар Эшонкул, роман, психология героя, социальная несправедливость, отчуждение, символический образ, человеческое «я», художественная образность, философская интерпретация.

Abstract. This article analyzes Nazar Eshonqul’s novel “Gorogli or the Water of Life,” focusing on the protagonist’s psychology, social injustice, and alienation. The study highlights the use of artistic devices such as portrait, landscape, and symbolism to reveal inner experiences. The novel is interpreted as a reflection of the search for self-identity and the meaninglessness of society.

Keywords. Nazar Eshanqul, novel, the psychology of the protagonist, social injustice, alienation, symbolic imagery, the human self, artistic imagery, philosophical interpretation.

Hamмамizga ma’lumki, badiiy asar markazida qahramonlarning his-tuyg‘ulari, uning kechinmalari, odam va olam munosabati turadi. Roman janrining

imkoniyatlari boshqa janrlarga nisbatan, inson taqdiri va umri manzaralariga kengroq o‘rin beradi, o‘z-o‘zidan romanda insoniy kechinmalar ko‘proq va kengroqdir. Asar qahramonlarining kechinmalari ular yashab turgan davr muhitining aksi hisoblanadi, chunki inson borki atrofida yuz berayotgan voqealardan ta’sirlanadi va unga munosabatini beradi, vaholanki munosabatlar inson hissiyotlari asosida vujudga keladi.

“Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romani qahramoni N.ga tegishli bo‘lib, “N.ni yangi lavozimga tavsiya qilishdi. Buni o‘zi ham kutmagandi. To‘g‘rirog‘i, bunchalik tez tavsiya qilshadi deb o‘ylamagandi. U vazifasiga ko‘ra, xonada shiftgacha taxlab tashlangan hujjatlarni titib o‘tirar ekan, unga rahbarning qabuliga kirish zarurligi haqida qo‘ng‘iroq qilishdi. N. xabarni eshitib, bir zum angrayib qoldi. Shuncha yil ishlab, aqalli biror marta rahbarning qabulida bo‘lmagandi”¹. Bu keltirilgan parchadan ma‘lumki Sobiq tuzum davrida yashagan insonning tashkilot rahbari va xodim o‘rtasidagi ulkan tafovutning shu qadar yetib bo‘lmas yuksakligi jamiyatdagi tengsizlikning yaqqol namoyandasi sifatida aks etgan. Vaholanki, Sovet jamiyatida hamma teng degan shior mavjudligining mutlaqo teskari holat. Shu katta tafavut N. ning xabarga kutilmagan hodisa sifatida munosabat bildirishga sabab bo‘lgan.

Oxiri yo‘q sargardonlik va xo‘rlik iskanjasida N.ning ruhiy olamida keskin burilishlarga olib keladi. Romanning oldingi boblaridan bilamizki, N. ni hayotiga mazmun kiritish uchun Havoni oldiga turmush qurish taklifi bilan ketayotgan fikrlari, uning hayotdan mamnun va hayotga bo‘lgan muhabbat uchqunlari sezilib turadi. Yozuvchining inson ruhiyatini yoritishdagi yana bir o‘ziga xoslik borki, N. ning istiqomat qiladigan uyi va uni o‘rab olgan atrof muhit, harakat tasvirlari orqali qahramon kayfiyati va ruhiyatining holati undagi o‘zgarishlar yoritib berilgan. “Xonadan bo‘yoq hidi kelardi – u xonasini yaqindagina bo‘yayotgan, hali ba‘zi joylar qurib ulgurmagandi”², N. ning Havo bilan yangi hayot qurish niyati shu bo‘yoq hidi qatiga yashiringan bo‘lsa, hali qurishga ulgurmagani joylar N. qalbidagi umid uchqunlaridir. Q. binosidagi qorong‘u dahlizlardagi sarson sargardonlik uning butun o‘zligi dalillash uchun harakat qilyotgan barcha urinishlari mahvumlik va natijasizlikdan boshqa narsa emasligiga ishora qilib, chiqish eshigini izlab yurarkan holdan toyib mizg‘ib qolishi, va yana harakatga tushishi, hamda butunlay umidsizlikka tushgan holatida eshik tirqishidan tushib turgan shu‘la uning butun bir sarguzashtning umumlashgan sahnasi desak ham bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘li” romanining “Go‘rkov” nomli fasliga kelib, bosh qahramon N. o‘zini tiriklayin ko‘mib masxara qilayotgan bashariy dunyoga nisbatan g‘oyat hafsalasiz munosabatda bo‘la boshlaydi. Bu hol yilning yoz va kuz fasllarida uning ko‘chaga chiqmay, tarki dunyo qilgan odam singari hamma narsadan ko‘ngli sovib qolishida bo‘y ko‘rsatadi. Bor-yo‘qligi birovga bilinmay umri o‘tayotgan N.ning hafsalasizligidan uyi betartib va besarishta makonga aylangan. Bu hol romanda shunday tasvirlanadi:

“...hech bir ishga qo‘li bormas, qo‘ygan idishi yoki buyumi joyida qolar, qaytib yig‘ishtirmas, xonalar egasi shoshilinch ko‘chib ketgan uy kabi to‘zg‘oq va isqirt edi. N. o‘sha yoz soqolini bor yog‘i ikki marta, unda ham yuzi ko‘rinmay qolgach va nafas

¹EshonqulN. “Go‘ro‘g‘li yoxud hayotsuvi”, G‘afurG‘ulomnomidaginashriyot-matbaaijodiyuyi. T.-2018.B.3.

²EshonqulN. “Go‘ro‘g‘li yoxud hayotsuvi”, G‘afurG‘ulomnomidaginashriyot-matbaaijodiyuyi. T.-2018.B.37.

olishga halaqit beravergach, qaychi bilan qirtishlab qo'ydi. Kir-chirga belangan kiyim-boshining ko'rinmay qolgan, xona tamaki hidiga va qoldig'iga to'lgandi"³

Xonadaning o'g'ir havo, to'zg'igan ashyolar, rangsiz va kir kiyimboshlar – bu manzara qalbi xufton bo'lgan N. ning simvolik tasviridir. N. Eshonqul fikrining dalili uchun misolni qahramonning o'sha kezda qorong'ulikka burkangan hayot tarzi, xufton kayfiyatiga hamohang tarzda tanlagan. Adabiyotshunos olim I.Yoqubov bu narsa o'zbek romanchiligiga tamomila yangilik emas deb hisoblaydi: "Bu ifoda yo'sini milliy romanchiligimiz uchun tamomila yangilik emas. masalan, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat"romani personajlaridan biri Ergashning bir xonali "badbo'y kulba"si "mog'ori chiqib ketgan, ipirisqi" o'rindiqlari va "juldur" holati ham shu qahramon achchiq taqdirini tamsil qilib kelgan edi"⁴.

N.da xona derazasini ochish orqali uyning havosini yangilashga xohishi yo'qligini ko'rsatish vositasida uning ichki ruhiy holatida moddiy dunyo adolatsizliklariga ko'nika olmaslik, ikkilanish sodir bo'layotganligini bildirib o'tgan. Yozuvchi bu evrilishni o'quvchiga darrov oshkor qilmaydi. Aksincha, xo'rlangan kishining zavolli hayoti ramziy ifodasini yanada chuqurlashtiradi. Chunonchi, simvol sifatida qo'llangan "itlarning mungli nidosini tinglash" tarzida N.ning o'z ichki "men"i bilan yuzlashish jarayoni tasvirlanadi. Qahramon N., dastlab, bu nidoni go'yo tashqaridan eshitadi:

"N. bir kechasi itlarning uvlashini eshitdi va birinchi marta derazadan tashqariga – zim-ziyo tunga qaradi. Qor yog'ardi. Itlar axlat undug'i oldida uvlashar, ularning tovushi qandaydir mungli va yovvoyi edi. N. har kuni itlarning uvlashini derazadan turib eshitadigab bo'ldi, ba'zi kunlari o'sha itlar uvlashi eshitilmay qolsa, bezovta bo'lardi.

*Itlar uvlar ekan, N. o'zining ichida ham nimadir uvlab yuborayotganini sezib qolardi. Endi u itlarning uvlashini qo'msab chiqar, o'zi bilan itlar orasida qandaydir bog'lanish paydo bo'lganini sezardi. Bu bog'lanish uning zavolga yuz tutgan hayotiga shunchalik joziba bag'ishlardiki, endi u bir paytlardagi kabi o'z taqdirining adolatli hal qilinishini emas, itlarning uvlashini kutib yashardi"*⁵

Ko'rinadiki, o'sha yovvoyi ohang ko'ngliga bu qadar yaqin ekani sezishi bilan xona (ko'ngil)ga yangi havo kirib keladi, ya'ni ko'ngil nigohi botinga yo'nalishi bilan N. hayotida o'zgacha mazmun va joziba paydo bo'ladi. Shubhasiz, N. o'z botinida uyg'onib, butun vujudini chulg'ab olayotgan bu his-tuyg'u nima ekanini birdanida anglab yetolmaydi. Biroq, bu xol uning hayot tarziga aylangach, zulmat tubidagi vaziyat tubdan o'zgardi: "... itlar uvlashi bilan uning vujudi qizib, tanasi olov bo'lar, yuragida yovvoyi bir shavq uyg'onar, ichida hamma narsai tilka-pora qilish, badbo'y hidlardan mast bo'lish istagi uyg'onar, ba'zi kechalari u bu istak oldida ojiz qolib tanasini tishlab tashlar, yelkalaridan oqayotgan qonni ko'rib, battar quturib ketar va bo'g'zidan xo'rlik kabi yovvoyi bir uvlash otilib chiqardi. N.itlarda qo'shilib, asta-sekin uvlashni o'rgandi"⁶.

³EshonqulN. "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi", G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaaijodiyuyi. T.-2018.B.289.

⁴Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi.T.: "Nurafshon business",2021.–B. 248.

⁵Eshonqul N. "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi", G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaaijodiy uyi. T.-2018.B.289.

⁶Eshonqul N. "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi", G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaaijodiy uyi. T.-2018.B.290.

Kitobxon zohir va botindagi sadolar o‘zaro qo‘shilib ketgani sari, personaj vujudida paydo bo‘layotgan yengillik, baxtiyorlik va yirtqichona bir shafqatsizlikni tushuna olmay qiynaladi. Chunki musibatli tuyg‘ular hayvoniy tilda ifodalanadi. Odamning it yoki bo‘riga o‘xshab uv tortishi, aslida, uning hasrat-iltijosi, qahr-g‘azabi, o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetgan alam va xo‘rlikning botinida cho‘ziq yig‘i bo‘lib otilib chiqishidir. Agar it va odam munosabatlari uyg‘unligi teran hamdardlik negizida yuzaga kelishiga e‘tibor qilinsa, tashqari(egasiz it) va ichkari (toptalgan ko‘ngil)ni ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan begonalik hissi birlashtirib turgani oydinlashadi.

Demak, jamiyat tashlandiq holda keltirgan N. musibatlari arimagan, aksincha, tobora o‘g‘irlashib bormoqda edi. Aslida, it ijtimoiy xo‘rlikning majoziy ko‘rinishi bo‘lib, bu evrilish odam bo‘lib yashash uchun hech qanday imkoniyat qolmagani, jamiyat itday xor qilingani uchun N.da shu qiyofaga kirishga o‘zga chora yo‘qligini bildiradi. N. Eshonqul ijtimoiy chiqitning hayoliy manzarasini chizgach, tashqaridagi it tasviriga ortiq ehtiyoj qolmaydi :

“N.ning uvlashi bora-bora itnikidn farq qilmay qo‘ydi, endi it kelmagan kunlari N.ning o‘zi uvlab chiqar, uvlagan sayin o‘zini olis va shafqatsiz ajdodlarining shuuri qoplabolar, uvlashda iltijo ham, hasrat ham , qahr va g‘azab ham mujassam edi”⁷.

Xonada uy nazoratchisi izlayotgan It (hayvon) mavjud emas. Zotan, it obrazi olis ajdodlarmizning insondan begonalashgan muhit, bandaning dilidagi umidlarni so‘ndiruvchi adolatsiz jamiyatga qarshi qahr-g‘azab va nafratini ramzi bo‘lib keladi. Shuning uchun yotlik olamini tilka-pora qilishga tayyor turgan inning qontalash ko‘zlaridagi vajohat o‘zgalar diliga qo‘rquv soladi. Jumladan, kalondimog‘ uy nazoratchisi pildirab qochib qolsa, qiltiriq, go‘ddaygan va olifta sud kotibi aytar so‘zidan adashib, g‘o‘ldiray boshlaydi.

Ijtimoiy tartiblarda uchrovchi ayrim “nozik” jihatlar, xususan, sud va ijro tizimida mavjud turfa nayranglardan bexabar N. hukmda “istisno holat” bo‘lishi mumkinligiga ishonib, qattiq adashadi. “Anglashilmovchilik” tufayli 3-29- raqamli qabrga ko‘milgan xabar hayot sinovlariga dosh berolmay, g‘oyat tushkun kayfiytda qolgan kishida yan umid nishonasini uyg‘otishi tabiiy. N. shum taqdir sha’niga yopishtirgan mash’um tamg‘ani uloqtirib tashlashni istaydi.

Afsuski, uning eng katta xatosi o‘zgalarga o‘zining tirkligini isbotlashga uringani edi. Odam har qancha haq bo‘lmasin, butun boshli jamiyat, undagi qonun va uni ijro etuvchi o‘nlab muassalarga qarshi kurasha olmaydi. Bu jarayonda yolg‘izlanib qoladi va inkor etiladi. Maynavoz hukmbardorlar va yaltoq ijrochilarga aldanib, so‘nggi umidlaridan ham mosuvo bo‘lish N. uchun behad musibat edi. Bu ham yetmagandek, o‘zi uchun qabr qazish hukmi hammasidan oshib tushadi. Chunki bu qahramonning orzu-umidlarini o‘z qo‘li bilan ko‘mish bilan barobar edi.

Shuning uchun adib roman so‘nggida N. o‘zni haqoratlashgani, bu dunyoda hech qaysi ish uning ixtiyori bilan sodir bo‘lmagani, sodir bo‘lmasligini anglagan N.ni yo‘lovchlar o‘rtasida, chirog‘i sinib qolgan simyog‘ochga suyangani holda juda horg‘in , ojiz va notavon qiyofada tasvirlaydi. Sodir bo‘lgan barcha nursiz voqealar o‘rtasida sirli va mavhum umumiylik borligiga e‘tiborimizni qaratadi. N. bularning bariga qarshi kurashaverib, oxiri egasiz it kabi tashlandiq va keraksiz kimsaga aylangan bor-

⁷Eshonqul N. “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi”, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.-2018.B.299.

yo'g'i o'ttiz uch yashar yigit edi. U o'lgani haqidagi yanglish hukmni hech narsa bilan o'zgartira olmasdi. Aksincha, tiriklik da'vo qilgan sari barcha harakatlari zo'ye ketar, uni shunchalik lahadga qarata itarishardi. Natijada, N. o'zining hech kim ekanligini anglab yetadi. Darhaqiqat, N. hech kim bo'lib yashagandi. Surati va siyratiga begona bo'lgan dunyo ham u bilan yarash bitimi tuzmadi. Uning o'lik-tirikligi hech kimni qiziqtirmadi. N. tafakkur kengliklari bo'ylab sayohat qilgani sayin o'zining hech kim ekanligini anglab boraverdi. Hech kimlik cho'qqisiga ko'tarilgan sari vujudini besamar charchoq qamrab oldi. Chunki N. o'zini yengib, o'zligiga xiyonat qilib, vaziyatga ko'nikib yasholmasdi.

N. o'z kuchini behuda sarflagani, butun quvvatini so'rib bo'lishganini har qancha tushunib yetmasin, kurashaverib holdan toygan, hech narsaga yaramaydigan holga kelib qolgandi. O'zining mavjudligini bildirish uchun bor kuchi, his-hayajoni, jismoniy va ma'naviy qudrati, umid-orzularini behuda sarflab bo'lgan, qurigan daraxt kabi holsiz, madorsiz jasadga aylangan, ishtiyoqi so'ngandi. U nafaqat yashash va ishlash, balki hayol qilishga ham madorsiz edi. faqat uxlashni uzoq-uzoq uxlashni istardi : *“Meni adoyi tamom qilishdi, - deb o'ylaydi u,- endi, xatto anavi bekatgacha ham yurib borolmayman”*⁸.

Haqiqatdan ham, u tun qorong'usida bekatga tomon emaklab borarkan, mislsiz xorg'inlik oyoqlaridan tepaga qarab o'rmalab boraveradi. Qayerda bo'lsa ham, biroz mizg'ib olgisi kelayotgan qahramonning bu holati shunday tasvirlanadi: *“Butun kuchini tirsaklariga jamlab, titrab-qaqshabgancha bekatga qarab emaklab borar, hozirgi holati talangan , oyoqlarini sindirilgan itning sudralishiga o'xshashini o'ylab, butun tanasini zaharxanda kulgi qamrab oldi va butun tanasidagi hordiqni uvlab haydab chiqargisi keldi, biroq xatto, uvlashga ham madori kelmay qoldi- bekatga yetar-yetmas yotib oldi”*. O'ziga nisbatan ham achchiq kinoya , piching va istehzo bilan qaray olgani uchun N. dunyoning shodlik va xavotirga to'la barcha shovqinlari, olomonning bemaqsad intilishlariga etak silkib , boshlangan barcha voqealararo izchil tartibni ta'minlash, barini muayyan izga solish va bu ayanchli qismatiga xotima yasashga qaror qiladi. O'ziga yozilgan hukmni ijro etadi.

Darhaqiqat, N. o'zini poyezd tagiga tashalab , qop-qora bo'shliq ichra g'oyib bo'ladi. U o'zining inson sifatida mavjud ekanini tan olmagan jirkanch va tuban muhitning hukmini tasdiqlaydi. Adabiyotshunos olim I.Yoqubov aytganidek, yozuvchi o'zining shaxssizlik haqidagi nazariyasi kontsepsiyasiga sodiq qolgan.

Xulosa qilsak, *“Go'ro'g'li va hayot suvi ”* romani o'z menini izlab sarson bo'lgan qahramon tipi va ma'nisizlikdan iborat butun bir jamiyatni ramziylik va falsafiylik qatlarida bayon etadi. Yozuvchining xarakter yaratish mahoratining mukammalligi portret chizmalari orqali ko'riladi. Personajlarning ramziylikka asoslangan portretidagi umumiy va xususiy tasvirlari orqali ular xarakteri va xususiyatlarini chizishga yordam bergan. Shu bilan birgalikda dinamik peyzaj tasvirlari ham personajlar fe'l-atvorini, illatlarini ochib berilgan. Aynan peyzaj tasvirlari zamon ruhini yoritib berishda ham ahamiyatli bo'lib, bu tasvirlar butun bir jamiyatning ramziy ifodasi hisoblanadi.

⁸Eshonqul N. *“Go'ro'g'li yoxud hayot suvi”*, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.-2018.B.302.

Asar qahramonlarining alohida nomlar bilan atalmasligi ham badiiy vazifani bajargan bo‘lib, mustaqil fikriga ega bo‘lmagan odamlarning umumiy qiyofasini ochib beradi. Voqealar rivoji qismdan qismlarga o‘tar ekan, yozuvchi ta’riflab bermoqchi bo‘lgan jamiyat tasvir maydoni kengayib, chuqurlashib boradi. N.ga qarama qarshi ravishda bir xil taqdir egasi bo‘lgan Rafas personajining kiritish yordamida yozuvchining hayotda inson o‘zini shaxs sifatida anglashi va boshqalardan tomonidan tan olinishi kerakligi g‘oyasini ochib beradi.

Romanda yozuvchi peyzaj tasviriga parallel ravishda inson ruhiyati chizgilarini ham berib o‘tgan. Tashqi moddiyatdagi tartibsizlik va qorong‘ulik qahramon ichki olamida vujudga kelgan tushkunlik, alam va iztirob hislarining tamsiliy ifodasi. Bunday tashqi olam tasviri yordamida ichki olamni (inson ko‘nglini) tasvirlash o‘zbek adabiyotiga butunlay yangilik hisoblanmasa-da, Nazar Eshonqulning bu romanida keng qo‘llanilgan. Yozuvchi detallardan unumli foydalangan bo‘lib, ular ham yorug‘lik (umid) va qorong‘ulik (umidsizlik) tushunchalarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik / akademik M.Nurmuhamedov tahriri ostida. –T: fan, 1978, 1979.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent – “Ozbekiston” – 2002.
3. Ulug‘ov A. Adabiyot nazariyasi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. T. – 2017.
4. Umurov H. Adabiyot shunoslik nazariyasi. Toshkent, – A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti – 2004.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T.: Akademnashr, 2010. – 400b.
7. Qo‘chqarova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari. Toshkent. Muharrir. 2011, – 232b.
8. To‘ychiyev A. O‘zbek romanlarida makon va zamon. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 152b.
9. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. T.: “Nurafshon business”, 2021.
10. Matyakupov S. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida inson konsepsiyasi va shaxs badiiy talqini: Filol.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2006;
11. Burxonova F. Adabiy –estetik qarash va ijodiy jarayon (N. Eshonqulva U. Hamdam ijodi misolida) monografiya. Toshkent “Innovatsiya – Ziya”, 2020.
12. Kucharova M. Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy shartlilik: Falsafa d-ri (PhD)...diss. – Toshkent, 2020;
13. Boboqulov Y. XXI asr o‘zbek romanlarida inson ruhiyati talqini: Falsafa d-ri (PhD)...diss. – Toshkent, 2022.
14. Hozirgi adabiy jarayon masalalari (N.Eshonqul 60 yiligiga bagishlab o‘tkazilgan ilmiy – nazariy xalqaro anjuman materiallari) –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022.

15. Emek Üşenmez. Modern özbek edebiyati ve Nazar İşankul. Hozirgi adabiy jarayon masalalari (N.Eshonqul 60 yiligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy – nazariy xalqaro anjuman materiallari) – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. – B.93.
16. N. Biray, U. Topçu Öztürk. Nazar İşankulun “İstilâ” Hikâyesi Üzerine Birİnceleme Hozirgi adabiy jarayon masalalari (N.Eshonqul 60 yiligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy – nazariy xalqaro anjuman materiallari) –Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022. – B.95
17. Eshonqul N. SaylanmaI, II. “Akademnashr”, Toshkent – 2022.
18. Eshonqul N. “Mendan “ men” gacha”. “Akademnashr”, Toshkent – 2014..
19. Eshonqul N. “Gorogli yoxud hayot suvi”, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. T. – 2018.
20. www.ziyonet.com.
21. <http://diss.natlib.uz/>
22. www.literature.uz